



REFLECTION OF CONNOTATION IN UZBEK LANGUAGE PHRASES.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156749>

Mirzaabdullayeva Mahliyo Xosiljon qizi

Andijan State Institute of Foreign Languages

Teacher of the Department of Theoretical Aspects of the English Language

mahliyomirzaabdullayeva53@gmail.com

ANNOTATION

In this article, the meaning of the term connotation, its differences from a logical point of view, its place in linguistics, and its embodiment in the word group of adjectives were explained. It was analyzed through examples given in various literature

Key words

connotation, meaning, language, linguistics, happy, sad, adjective.

KONNOTATSIYANING O'ZBEK TILI SO'Z TURKUMLARIDA AKS ETISHI.

Mirzaabdullayeva Mahliyo Xosiljon qizi

Andijon davlat chet tillar instituti

Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida o'qituvchisi

mahliyomirzaabdullayeva53@gmail.com

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada konotatsiya terminining ma'nosi, mantiqiy nuqtai nazardan farqlari, u uning tilshunoslikdagi o'rni, sifat so'z turkumida gavdalanishi yoritib berildi. Turli adabiyotlarda keltirilgan misollar orqali tahlil qilindi.

Kalit so'zlar

konotatsiya, ma'no, til, tilshunoslik, sho'x, maxzun, ma'yus, sifat.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрыто значение термина «коннотация», его отличия с логической точки зрения, его место в языкознании, воплощение в словесной группе прилагательных, проанализировано на примерах, приведенных в различной литературе.

Ключевые слова



КОННОТАЦИЯ, значение, язык, лингвистика, радостное, грустное, грустное, качество.

Dunyo tilshunosligida tildagi madaniy belgilar ifodasi, dunyoni konsept asosida anglash, voqelikni nomlashdagi mental yondashuv tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortmoqda. Til tarixiy rivoji davomida ijtimoiy jarayonni, o'zgarishlarni o'zida namoyon ettirib boradi. Olamning lisoniy manzarasini o'rganish, xalqlarning yashash hududi, turmush tarzi, mental xususiyatlari va milliy-madaniy xarakterini yoritish, etnomadaniy etika tamoyillarini, ijtimoiy munosabatlar, millatlar orasidagi muloqot ko'rinishlari, muomalaning axloqiy-madaniy me'yorlarini atroflicha tahlil qilish imkonini yaratadi. Til va madaniyat munosabatini tahlil qilish, til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirish, milliy qadriyatlar, an'analarni ifodalash darajasini aniqlash madaniyatlar munosabatiga kirishayotgan bugungi global taraqqiyotning dolzarb masalalaridan biridir.⁵⁰

Milliy tilimizning nufuzi va o'rni milliy taraqqiyot o'sishi va rivojlanishida yaqqol ko'zga tashlanadi. "O'zbekiston rivojining hozirgi yangi bosqichi-milliy taraqqiy etish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va mavqeini yuksaltirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda".⁵¹Vatanimizdagi olib borilayotgan islohotlar o'zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi obro'sini ko'tarish, ham uning mavqeini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan qarorlar va qonunlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bugungi taraqqiy etayotgan davrda har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash uchun o'z madaniyati, urf-odati, azaliy qadriyatlari, ona tilini yuksaltirish hamda asrab avaylash masalasini yuqori o'ringa qo'yishi lozimdir.⁵²

"Konnotatsiya" so'zi taxminan 1200-yilda paydo bo'lgan. Ya'ni konnotatsiya so'zi lotincha "connotare" so'zidan olingan bo'lib "birgalikda", "bilmoq" ma'nolarini anglatadi va sxolastik mantiqdan kelib chiqqan, so'zlarning ma'nosi haqidagi falsafiy va teologik munozaralarda foydalaniladi.⁵³XIV-asrda til haqidagi falsafada "konnotatsiya atamasi" so'zlarni tasvir va harakatga ko'ra ular nima ko'rsatishini farqlash maqsadida qo'llanila boshlandi. Xususan, ular aniq va mavhum so'zlarning farqi haqida gapirdilar. XIX-asrda konnotatsiya atamasi nutqning pragmatik tomoni bilan bog'liq bo'lgan ifodalar mazmunining barcha

⁵⁰.Amanlikova N.R O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari [Matn] monografiya. – Toshkent. "Ttansport" 2021.– 136 bet.

⁵¹ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 "On measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language" // www.lex.uz.

⁵² Mirzaabdullayeva M.X "Tilshunoslikda denotativ va konnotativ munosabatlar tadqiqi tarixiga nazar" Namdu Xabarlarlari

⁵³.КропотоваЛ.В.История развития лексической коннотации //Язык и культура. 2010. № 1. С.33–47



hissiy rang elementlarini ifodalay boshladi. Garchi, bu atama uzoq vaqtdan beri qo'llanilishiga qaramay, uning ta'rifi hali ham tilshunoslikda noaniq. XVII-asrda "konnotatsiya atamasi" Port-Royal grammatikasi orqali moddalardan farqli o'laroq xossalarni belgilash uchun kirib keldi.⁵⁴

So'zlarning turli munosabatlar jarayonida yoki nutq sharoitida olgan ekpressiv bo'yog'i sifatida belgilanuvchi ma'nosi konnotativ ma'no hisoblanadi. Shuning tufayli konnotatsiyaga atalgan tadqiqotlarda konnotativ ma'no bilan ekpressiv bo'yoq tenglashtiriladi. Ma'lumki, konnotatsiya hodisasini turli so'z turkumlarida gavdalanishi turlichadir. Birinchi navbatda sifat so'z turkumiga to'xtalib o'tsak, sifat ma'no turlarining denotativ va konnotativ semalarini topish va tahlil qilishda ularni guruhlarga ajratib o'rganishda ularni oson aniqlash imkonini beradi. O'zbek tilshunosligida sifatning semantic guruhlari tasnifini ilk bora A.Kononov amalga oshirgan. U sifatni ma'no jihatdan 7 turga bo'ladi.⁵⁵ 1) rang-tus anglatuvchi so'zlar

2) maza-ta'm anglatuvchi so'zlar 3) hajm-shakl anglatuvchi so'zlar 4) kishi va hayvonlarning xususiyatlarini anglatuvchi so'zlar 5) xarakter-holat anglatuvchi so'zlar 6) kishi va hayvonlarning jismoniy kamchiligini ifodalovchi so'zlar.

Konnotatsiya hodisasini quyidagi **jiddiy, sho'x, mahzun, ma'yus, mungli** xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar misolida ko'rib chiqamiz. Shaxs xarakter-xususiyatini bildiruvchi **jiddiy** leksemasi "mulohazali, chuqur o'ylab ish ko'radigan" ma'nolarini bildiradi. *U yosh bo'lishiga qaramay jiddiy, kichkina miyasi muhokamaga qobil edi. Xushchaqchaq do'stginam, bo'g'ilma gohi. O'ta jiddiy zotlar ichida har on (O.M).* ⁵⁶Demak, bu leksema quyidagi semalarni ifodalab keladi.

"Katta", "kuchli" so'zlariga sinonim sifatida ham **jiddiy** leksemasini olishimiz mumkin, bu holatda ma'noni ta'kidlab bo'rttirish uchun ishlatiladi. Hayotda bu qadar jiddiy qarshilikka duch kelmagan Ernazar polvon undan battar quturgan edi.(N.Q.)

Bu so'z "**og'ir, vazmin**" kabi konnotativ ma'nolarni anglatishi mumkin: *Nortoji polvon bamaylixotir yonboshlarkan, ildam karta chiylashga tushgan Qodirga tek tur, degan ma'noda imo qildi-da, o'ta jiddiy ohangda dedi (N.Q). O'g'lini ko'rgach, odatiga xos jiddiy tarzda kampfita im qoqdi. (O'.X.). O'rganilayotgan so'z "yaxshi", "yetarli" so'zlariga xos tushunchani beradi: Masala shundaki, u o'zi bu voqeaga jiddiy e'tibor bermagan edi.(N.N)*

⁵⁴КропотоваЛ.В. Ко'rsatilgan manba.B34.

⁵⁵ Кононов А.Н Грамматика современного узбекского литературного языка -М.Л: Изд-во ANCCCR.1948.- С. 144-145

⁵⁶ Mamarajabova Z. N. "O'zbek tilida sifatlarning konnotativ ma'nolari" diss.Toshkent -2004 ,B.49-50



Sho'x so'zi inson harakteri belgisini ifodalab, "vaqtini o'yin bilan o'tkazadigan, o'yinqaroq, to'palonchi" ma'nosida keladi.⁵⁷ *Yigit kishi sho'x bo'ladi, endi sal quyilarsan* ((O.M))

Bundan tashqari xushchaqchaq, o'yin kulgini yoqtiradigan, quvnoq odam ma'nosini bildiradi: Baland bo'yli, semiz qorni katta, juda muloyim sho'x kishi edi u. (Z.S.). Sho'x leksemasi "o'ynoqi, jo'shqin" so'zlariga sinonim bo'lib ishlatilinishi mumkin: *Suyaman sho'x raqs, sho'x so'zlarini* (Z.S)

Agar ko'rib chiqilayotgan so'z fe'ldan oldin kelsa, ravish sifatida ishlatiladi ya'ni bu holatda harakat belgisini ifodalaydi: *Orqa o'rindiqlarda qoshu kipriklariga bir quchoq surma qo'ygan, hurliqoday juvon sho'x jilmayib o'tirardi.*

Maxzun so'zi "mungli, g'amgin" ma'nolarini bildirib insonning harakter-xususiyatini ifodalaydi. Garchi bu so'z eski bo'lsada, hali hanuz o'zbek adabiyotida keng ko'lamda ishlatiladi: *Bu maxzun, mehribon ayolning mehnati, muhabbatiga shumi javobi?* Bu leksema arxaik so'z tarzida o'zbek adabiy tilida keng qo'llaniladi va she'riyatning samaraliligini oshirishda ulkan ahamiyatga egadir. Nazmda **maxzun** so'zi nutqiy teranlik va aniqlikni aniqlab, epitet sifatida xar hil konnotativ ma'nolarni bildiradi. Mana shular yordamida nazmiy nutqning emotsional-ekspressiv sjihati ortadi: *Oshiq aqlari maxzun yellar, Zorli qo'shiq aytib bilmaslar tinim.* (O.M.) Bu kun maxzun o'ylar girdobi ichra senga keldi.

Maxzun so'zini "Ma'yus, xomush" degan semalarini ham kontekslarda uchratishimiz mumkin: *Bari o'tib ketdi bir tush misoli, Eslayman goh maxzun, gohida quvnoq. Saxro otashida qovrilar gullar, Charx urar ular boshida maxzun bulbullar.* (A.O.).

Ma'yus so'zi maxzun leksemasi bilan sinonim bo'lib inson xarakter-xususiyatlari belgisini ifodalaydi hamda "g'amli, g'amgin" kabi konnotativ semalarni ifodalaydi. Bilishimizcha, ma'yus leksemasi xafa, maxzun, g'amgin so'zlari bilan uslubiy sinonimik munosabatga kirishadi: *U chaqqon odimlarkan, qizning ma'yus chexrasi hayolidan kechdi.* (O. Y.). *Hayolini butunlay egallab olgan suluv va ma'yus chexrasi ro'parasida o'z qiyofasini tiklab oldi.*

Mungli so'zi inson harakter sifatlaridan birini bildiradi, yuqorida ko'rib chiqilgan **ma'yus, maxzun leksemalari** bilan ma'nodosh hisoblanadi. Bu so'zning asosiy ma'nosi "g'amgin", "xazindir".⁵⁸ *Yolg'izginamning mungli ko'zlariga qarash azobi.* (N.X) Mungli so'zi asosan g'amga soluvchi, xafa qiluvchi semasini bildiradi. *Mungli musiqa yuragimni ezib yubordi.*

⁵⁷ O'TIL-J2.-B.436.

⁵⁸ O'TIL-J2.-B.436.